

## MUMTOZ ASARLAR TARJIMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

*Tojiboyev Murodilla* – magistratura bosqichi talabasi,  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ilmiy rahbar: **Omanov Po‘lat Habitovich**- Phd, dotsent,  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ilmiy izlanish sifatida mumtoz asarlar ingliz tiliga tarjimasining leksik, semantik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini tavsiflashdan iborat. Shuningdek, mumtoz adabiyot namunalari arxaizmning tarjima matnlarida aks ettirish tamoyillari hamda tarjimalarni amalga oshirishda qanday yo‘l tutish kerakligi bo‘yicha fikrlar va takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Lingvokulturologiya, tarixiy personajlar, transliteratsiya, antropologik paradigma, boburona uslub, madaniyat fenomeni.*

**Abstract.** This article describes the lexical, semantic, pragmatic and linguistic features of the translation of classical works into English as a scientific research. Also, ideas and suggestions on the principles of reflection of archaism in the translated texts of classical literature samples and how to proceed in the implementation of translations are given.

**Key words:** *Linguistic culture, historical characters, transliteration, anthropological paradigm, Boburona style, cultural phenomenon.*

**Аннотация.** В данной статье описаны лексические, семантические, прагматические и лингвистические особенности перевода классических произведений на английский язык как научного исследования. Также даются идеи и предложения о принципах отражения архаики в переводных текстах образцов классической литературы и о том, как действовать при осуществлении переводов.

**Ключевые слова:** *языковая культура, исторические персонажи, транслитерация, антропологическая парадигма, бобуронный стиль, феномен культуры.*

**Kirish.** Tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya XX asrning oxirida shakllana boshlaganligi bizga ma‘lum. Bu sohada ilmiy tadqiqot olib borgan V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeolgoik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan lingvokulturologiya termini bog‘liq tarzda paydo bo‘ldi<sup>1</sup>.

Lingvokulturologiyaning fanga kirib kelishi va shakllanishi haqida so‘z ketganida, barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning asoschilaridan biri V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta‘kidlaydilar<sup>2</sup>. Adabiyotlarda bu sohani kirib kelishida A.A.Potebnya,

<sup>1</sup> Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

<sup>2</sup> В.Гумбольдтнинг тил ва шахс ҳақидаги фикрлари тўғрисида, қаранг: Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшunoslikнинг майдонга келиши// Нурмонов А. Танланган асарлар. 3-жилдлик. – Т.: Академнашр, 2012. 2-жилд.

L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyana, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o‘tiladi<sup>3</sup>.

Lingvokulturologiya masallasida jiddiy tadqiqotlar olib borgan V.V.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1. Fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2. Lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajralishi;

3. Lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi<sup>4</sup>.

XXI asr boshida jahon tishunosligida yetakchi yo‘nalishni lingvokulturologiya egalladi. Tadqiqotlarda aytilicha, tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan lingvokulturologiyadir, til va madaniyat o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan predmetini tashkil etadi. “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, shaxs va madaniy omilni uzviylikda tadqiq etuvchi fandır”<sup>5</sup>. “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigмага tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”<sup>6</sup>, deb G.G.Slishkin ta‘kidlaydi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar ichida V.A.Maslova tomonidan yaratilgani eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. Ushbu o‘quv qo‘llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, ob‘ekti va predmeti, yo‘nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko‘rsatilgan<sup>7</sup>.

Lingvokulturologiya bu til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘lib, leksik til birligi orqali ifoda etilayotgan leksik birliklarni ko‘rsatib berish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Matnda keltirilgan madaniyatni leksik birlik orqali tasniflanishi va uni o‘quvchiga tushunari tarzda yetkazib berishdir. Bularni tarjimalarda aks ettirishda shu millat madaniyati va urf-odatlarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishni taqazo etadi.

Lingvokulturologiyaning boshqa barcha ko‘rinishlari kabi vaqt o‘lchov birliklari ham tarjimada asliyatga muvofiq aks etishi kerak. U yoki bu so‘zni, realiyani tarjima qilishda har qanday mutarjim ham yanglishishi mumkin. Tarjima ayrim olingan so‘zlarning to‘g‘ri-noto‘g‘ri o‘girilganiga qarab baholanmaydi. Tarjimaning asosiy

– Б.23-40; Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари ни излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2012. – №5. – Б.3-16.

<sup>3</sup> Маслова В.В. Лингвокультуроология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып.7. – 2004. – С.238-243.

<sup>4</sup> Маслова В.А. Лингвокультуроология. – М.:Academia 2001.

<sup>5</sup> Телия В.Н. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультуроологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С.222.

<sup>6</sup> Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультуроологические концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000.

<sup>7</sup> Маслова В.А. Лингвокультуроология. – М.:Academia 2001.

muvafaqqiyati vaqt o‘lchov birliklarini to‘laqonli qayta yaratish, aslyiat muallifi uslubini tarjima orqali mazmuni va g‘oyasini bera olishdir.

Umuman olganda o‘zga xalqqa xos istiloh-tushunchalar va o‘lchov birliklari leksemalari o‘girmasida ularning asarda qo‘llanilgan o‘rnini, bajargan vazifasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Barcha xalqlar uchun umumiy va har bir xalqqa xos bo‘lgan o‘lchov birliklari mavjud, umumiy o‘lchov birliklari tarjimasida tarjima tilidan aslyiatdagi istiloh – tushunchasining muqobilini topib, tarjima qilinadi. Lekin gap bevosita u yoki o‘lchov birliklari mazmun-mohiyatini ifodalaydigan birliklarga borib taqalganda ular transliteratsiya qilinib, zarur izohlar keltiriladi. Ingliz tarjimonlari “Boburnoma” matnida qo‘llanilgan o‘lchov birliklarini transliteratsiya, mos muqobillari hamda xolis ifoda yo‘li bilan o‘girganlar, natijada, aksariyat hollarda aslyiatning badiiy-estetik qimmatini, ularning milliy o‘ziga xosligi va tarixiy davri saqlanib qolgan.

Bobur og‘irlik o‘lchov birliklarini tasnif etganda, respientga tushunarli bo‘lishi uchun tasvir usulini boshqacharoq shaklda davom ettirganini guvohi bo‘lamiz. Hindistondagi o‘lchov birliklarining leksemalarning ko‘pligini Bobur shunday izohlaydi: *«bu adadlarning ta’yini Hinduston molining ko‘plugining dalilidir... Yana hind eli adadni ham xo‘b ta’yin qilibturlar: yuz mingni lak derlar, yuz lakni karo‘r derlar. Yuz karo‘rni arb derlar. Yuz arbn karb, yuz karbni niyl, yuz niylni padam, yuz padamni sank. Bu adadlarning ta’yini Hinduston molining ko‘plugining dalilidir»* (Boburnoma 2002; 208). Ushbu matnda berilgan raqamlar muallifning matematik atamalarni tasniflab ularni o‘lchovlarda ishlatishda tushunarli bo‘lishi uchun uringanini tasvirlarni hindcha terminlar asosida ko‘rsatishidan ham fahmlasak bo‘ladi. Boburona uslub hech bir muallifning asarlarida uchramaydi, o‘quvchi uchun matnni o‘qiyotganida hech qiyinchilik bo‘lmasligi Boburni tashvishlantirgani uni berayotgan o‘lchamlarida, tasniflarida o‘z ifodasini yaqqol topadi.

Ayni jihat mutarjimlar ijodida shunday aks etgan:

Ushbu *«yuz mingni lak derlar, yuz lakni karo‘r derlar. Yuz karo‘rni arb derlar. Yuz arbn karb, yuz karbni niyl, yuz niylni padam, yuz padamni sank»* jumlasini Leyden-Erskin tarjimasida: *«They call a hundred thousand a lak, a hundred laks a krur, a hundred krons and arb, a hundred arbs a kerb, a hundred kerbs a nil, a hundred nils a padam, a hundred padams a sang»* (Ular yuz mingni lak, yuz lakni karo‘r, yuz karo‘rni arb, yuz arbn karb, yuz karbni niyl, yuz niylni padam, yuz padamni sank deb atashadi);

A.Beverij tarjimasida: *«100,000 they call a lak; 100 laks, a krur; 100 krurs, an arb; 100 arbs, 1 karb; 100 karbs, 1 nil; 100 nils, 1 padam; 100 padams, 1 sang»* (Yuz mingni ular bir lak deb, yuz lakni karo‘r, yuz karo‘rni bir arb, yuz arbn karb, yuz karbni bir niyl, yuz niylni bir padam, yuz padam bir sank deb atashadi);

V.Tekston tarjimasida: *«One hundred thousand equal 1 lac; 100 lacs equal 1 crore; 100 crores equal 1 arb; 100 arbs equal 1 kharb; 100 kharbs equal 1 nil; 100 nils equal 1 padam; 100 padams equal 1 sankya»* (Yuz ming bir lakka teng, yuz lak bir karo‘rga teng,

*yuz karo ‘r bir arbga teng. Yuz arb bir karbga teng, yuz karb bir niylga teng, yuz niyl bir padamga teng, yuz padam bir sankka tengdir)* tarzida o‘girilgan.

Tarixiy personajlar haqida yetarlicha ma‘lumotlar to‘plashi, ushbu millat to‘g‘risidagi barcha soha haqidagi ma‘lumotlarni qamrab olishga harakat qiladi. Urf-odatlar, diniy terminlar, ushbu xalq ideologiyasi, o‘y-qarashlari, fikr-mulohazalar va hokazolarni o‘zlashtirgan yetuk tarjimon bo‘lishi kerak. Shunga qaramay «Boburnoma» asari ilmiy-tarixiy asar bo‘lishi bilan birga u ham badiiy asardir. Tarjimada ham badiiylilik xususiyati ustunlik qiladi. Ushbu badiiy xususiyatlar olib borilgan uch turdagi inglizcha tarjimalarda ham o‘z aksini topganligining guvohi bo‘lamiz.

Mumtoz asarlar tarjimasidagi xato-nuqsonlarni kelib chiqish sababalari asosan 4 xil: 1) boshqa xalqlar mumtoz asarlardagi ayrim so‘zlarni va birliklarni yetarli darajada bilmaslik, ba’zi tafovutlar ayniqsa mumtoz asarlardagi farqlar; 2) tarjima o‘quvchi saviyasini nazarda tutib, asliyat matnini ataylab soddalashtirishga urinish; 3) har qanday millatga xos tushunchalarini barcha birliklari uchun umumiy bo‘lgan atamalar bilan ifodalash yoki bunday o‘rinlarni tarjima jarayonida qisqartirib ketish; 4) tarjima asarini ingliz hayotida foydalanadigan birliklarga moslashtirish, milliyashtirish natijasi o‘laroq, boshqa xalqqa tegishli birliklarni shu xalq ishlatadigan birliklariga almashtirish.

**Xulosa.** Mumtoz asarlardagi birliklarni tafovutlari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqqa mansub birliklarning o‘ziga xos qarashlari va urf-odatlari borki, ular mohiyatan yaqin bo‘lsa-da, biroq lingvokulturologik jihatdan farqlanadi. Tarjima jarayonida ularni o‘zgartirish, o‘z rasm-rusumlariga muvofiqlashtirish asliyat o‘quvchisi amal qiladigan o‘lchov birliklariga daxl qilishi mumkin. Shu sababli eng avvalo tarjimonning o‘zi bag‘rikeng inson bo‘lishi va muayyan tartibda shu xalq o‘lchov birliklarini saqlab qolishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Doniyorov R. Badiiy tarjimada milliy xususiyatlarni aks ettirish masalalariga doir. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1962. – №5. – B.73.
2. Jamolov S., Otajonov N. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o‘rganish o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent, 1990. – 229 b.
3. Ibrohimov A. Boburiylar merosi. – Toshkent: Mehnat, 1993. – 78 b.
4. Is‘hoqov Yo. So‘z san‘ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 320 b.
5. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: ucheb. posobie dlya stud. vyissh. ucheb, zavedeniy / V.A. Maslova. – M.: Izdatelskiy sentr Akademiya, 2001. –208 s.
6. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2005. 220 b.
7. Mo‘minova S., Xurramov O. Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq va G‘arb nigohida. – Qarshi: Nasaf, 2012. – 110 b.
8. Nazarova H. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug‘at. – Toshkent: Fan, 1972.- 190 b.
9. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent, 1972. – 300 b.

10. Otajonov N., Komilov N. Badiiy tarjima va ilmiy tafsir. Tarjima san’ati maqolalar to‘plami 4-kitob. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1978. – 101 b.